INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

“ASIL VA KARAM” DOSTONINING TURK VA OZARBAYJON VERSIYALARINING O‘ZBEK VERSIYASI BILAN TIPOLOGIK ALOQALARI

Norboyev O‘ktam Safarboyevich -

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Urganch RANCH texnologiya universiteti

Elektron pochta: norboyevuktam1982@gmail.com

Tel: +998 93 922 87 32

ORCID: 0009-0002-6809-1191

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Asil va Karam” dostonining ozarbayjon, turkman va turk versiyalarining o‘zbek versiyasi bilan o‘zaro aloqalari, tipologik motivlari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, doston, epos, “Asil va Karam”, tipologiya, turk, ozarbayjon, o‘zbek.

Аннотация: В данной статье говорится не только о взаимодействии азербайджанской, туркменской и турецкой версий эпоса «Асил и Карам» с узбекской версией, а также типологических мотивах.

Ключевые слова: Хорезм, эпос, «Асил и Карам», типология, турецкий, азербайджанский, узбекский.

Annotation: This article talks about the interaction between the Azerbaijani, Turkmen, and Turkish versions of the epic "Asil and Karam" and the Uzbek version, as well as typological motifs.

Keywords: Khorezm, epic, "Asil and Karam", typology, Turkish, Azerbaijani, Uzbek.

Har bir xalqqa tegishli epos avvalo milliy o‘ziga xosligi, muayyan sotsial sharoitda yaratilganligi, uni ijod qilgan xalqning turmush tarzi va urf-odatlarini yorqin aks ettirishi, mahalliy aholining ijtimoiy orzu umidlarini kuylashi, voqealarni milliy epik an'analar orqali tasvirlashi bilan ko‘zga tashlanadi.

Epos milliy muhitda yaratilib, ommalashar ekan, albatta ijrochilarning ustozlik-shogirdlik an'analari, qo‘shni xalqlar bilan bir hududda yashab, madaniy aloqalarga kirishishi asnosida bir xalqdan ikkinchi bir xalqqa o‘tib, ommalashishi mumkin. Epik asarlarning tipologik va o‘zaro ta’sir natijasida o‘zlashtirilishi xususida fanda turlicha qarashlar yuzaga kelgan.

“Ijtimoiy rivojlanishning o‘xshashligi asosida tipologik parallellarning yuzaga kelishi folklor sohasidagi xalqaro aloqalar ta’siri masalasini inkor qilmaydi. Aksincha, aynan ijtimoiy vaziyatning bir-biriga yaqinligi bunday o‘zaro ta’sirlarga shart-sharoit hozirlab genetik faktor uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Chunki real tarixiy sharoitda boshqalardan mutloq ajralgan holda, alohida bir madaniy rivojlanishning bo‘lishi mumkin emas...

Komparativistlarning xatosi shuki, ular istagan bir tipologik moslikni o‘zaro ta’sir natijasi deb hisoblashadi. (1)

Bu borada rus folklorshunosi V.I.Chicherovning fikrlari yanada xarakterlidir: “Rus folklori shunday bir xalqlar folklori bilan umumiy qirralarga egaki, ushbu toifa xalqlar bilan ruslar hech qachon na siyosiy, na iqtisodiy, na madaniy-tarixiy, na qarindoshlik aloqalariga ega emas. Masalan, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika xalqlari ijodida shunday syujetlar va qo‘shiqlar borki, ular rus va Yevropa, Osiyo xalqlari folkloridagi ayrim syujet va qo‘shiqlarga to‘la mos keladi. Bu holat oddiy mos kelish, tipologik parallellardir”. (2)

I.V.Puxov turkiy xalqlar eposidagi tipologik o‘xshashliklarning sababini ikki omil bilan bog‘laydi:

Xalqning hududiy yaqin yashashi va ularning madaniy hayotining umumiyligi hamda genetik birligi.

Ijtimoiy hayot tarzining o‘xshashligi.

Ushbu omillarning birinchisi genetik umumiylikka, ikkinchisi tipologik o‘xshashlikka olib kelgan. (3)

Shu bilan birga biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan turkiy xalqlarning ham hayot tarzining tabiiy va sotsial o‘xshashligi, diniy-mifologik tasavvurlarining yagonaligi va yaqinligi juda keng geografik hududlarni qamrab olishi, madaniy-tarixiy umumiylikning paydo bo‘lishiga olib keldi”. (4)

Turkiy xalqlar o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy, tarixiy-madaniy aloqalar ularning yozma va og‘zaki adabiyotiga ham o‘zining jiddiy ta’sirini o‘tkazdi.

“Asil va Karam” dostonining hududiy geografik tarqalishining asosiy sabablari ham o‘sha omillarga bog‘lanadi.

Umuman tipologiya, xususan turkiy xalqlar eposidagi o‘zaro ta’sir masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. (5)

Ushbu maqolada “Asil va Karam” dostonining ozarbayjon, turkman va turk versiyalarining o‘zbek versiyasi bilan o‘zaro aloqalari, tipologik motivlari xususida so‘z yuritamiz.

Dostonlardagi she’riy matnlar har bir xalq ijodida o‘zgacha jilo, o‘zgacha ohang kasb etgan. Turkman va o‘zbek versiyalaridagi she’rlar bir-biriga juda yaqin keladi. Ozarbayjon versiyasidagi she’riy matnlar esa ushbu versiyalardagi matnlardan ancha uzoqlashgan. Lekin shunisi borki, bu dostondagi she’r matnlari o‘zbekcha va turkmancha versiyalarda “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridagi darajada bir-biriga yaqinlik kasb etmaydi. Ularda anchagina bir-biridan uzoqlashish va o‘zgacha mustaqillik xususiyatlari ko‘zga tashlanadi. Bu xususiyat dostonning “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlariga qaraganda qadimiyligidan bo‘lsa kerak degan xulosaga olib keladi.

Turk versiyasidagi she’riy parchalar bilan o‘zbekcha matndagi she’rlar bir-biridan ancha uzoqlashgan. Ba’zi to‘rtliklarning uch misrasi o‘zgargan holda to‘rtinchi misra ikki matnda ham aynan o‘zgarishsiz beriladi. Masalan, o‘zbekcha matnda “Man do‘narman, ko‘nglim do‘nmas” misrasi takrorlanadigan she’r uchrashini aytib o‘tdik. Undan yana misol keltiramiz:

Eshiting Karamning dodin,

Asilxon parizod yodin,

Qo‘ldan bermay o‘z sayyodin,

Man do‘narman, ko‘nglim do‘nmas. (Oshiqnoma, II kitob, 264-bet.)

Keklik gibi sekişliden,

Gögsi elvân nakişlidan,

Bir harâmi bakişlidan,

Ben dönerim gonül dönmez (Duymaz, 2001.288.)

Ozarbayjon versiyasidagi to‘rtlik bu parchaga juda yaqin keladi:

Кәклик кими сәкишлидән,

Көксу әлван нахышлыдан,

Бир һарамы бахышлыдан,

Мән дөнәрәм, көнул дөнмәз.

(Азәрбајҹан мәһаббәт дастанлары, 151-бет.)

Uchta versiyadagi parchalarga razm solinsa, turk va ozarbayjon versiyalariga daxldor parchalar o‘zaro juda yaqin, o‘zbek versiyasi esa ulardan jiddiy uzoqlashib, faqat oxirgi misra o‘zgarishsiz holda saqlanib qolgan. Shu bilan birga ushbu parchalarning genetik jihatdan bir nuqtaga birlashishiga shubha bildirish qiyin. Turk va Ozarbayjon versiyalaridagi misralarga mos keluvchi quyidagi satrlar ham kishi e’tiborini o‘ziga jalb qiladi:

Qiyo-qiyo boqishlining,

Jonim o‘ta yoqishlining,

Och qarchig‘ay boqishlining,

Dod alinnan, do‘st alinnan. (Oshiqnoma, I kitob, 27-bet.)

“Sayot va Hamro” dostonidan olingan ushbu to‘rtlik turk va ozarbayjon versiyalaridagi she’rga juda hamohang keladiki, bu hodisa ham tasodifiy emas. Ushbu o‘xshashliklar qadimiy adabiy aloqalarning aks sadosidir.

Turkman versiyasidagi to‘rtlik qatorlari esa o‘zbek versiyasiga aynan mos keladi. Ushbu xususiyatning asosiy sababi hududiy yaqinlik, mintaqaviy birlik bilan izohlanadi.

Turk versiyasidagi she’riy parchalarning aksariyati o‘zbek va turkman versiyalaridagi she’riy misralarga hamohang keladi.

Саримдур санго садаға,

Ёрим қирмизи кийибдур. (Ошиқнома II китоб, 284-бет.)

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

Turk versiyasidagi

Yaraşir kendi dalina,

Al kirmizi giyinmiştir.

Doston eldan-elga ko‘chib, ijrochidan ijrochi repertuariga o‘tib, yozuvga ko‘chirilgandan so‘ng kotibdan kotibga o‘tib, kattagina o‘zgarishlarga uchragan. Quyidagi parchada ham o‘sha hodisani kuzatish mumkin:

Vafoli yorimsan, do‘nay bo‘yinga,

Egri yurma Asil yorim, duz yuri. (Oshiqnoma II kitob, 273-bet.)

Turk versiyasidagi

Güzeller içinde bir Asli Han’sin,

Kaşin, gözün, kirpiklerin süz yürü.

Ayrim she’riy parchalarda turk, ozarbayjon va o‘zbek versiyalaridagi she’riy bandlar bir-biriga juda hamohang keladi.

Oqdi ko‘zim yoshi sel kabi bo‘ldi,
Seldin o‘tib man qaysisina borayin. (Oshiqnoma II kitob, 277-bet.)

Ozarbayjon versiyasida:
Kecha-kunduz chag‘iraram jaradan,
Mən bu jolun hankısına keldejim?

(Азәрбајчан мәнаббам дастанлары, 140-бет.)

Turk versiyasidagi

Çağiririm gece güdüz yaradan,

Ben bu yolun hangisine gideyim? (Öztürk, 2006:83).

Versiyalarning matnlarini solishtirganda yana bir narsa e’tiborni o‘ziga jalb qiladi.

Yozuvga olingan qissa-dostonlarda o‘ziga xos stereotip boshlanma mavjud. O‘sha an’anaviy muqaddima turk dostonlarida ham o‘zgarishsiz holda uchraydi: “Raviyan-I ahbâr ve nâkilân-i âsâr ve muhaddisân-I ruzi-gâr şöyle rivayet ederler ki, zaman-I evâilde, Isfahan şehrinde bir Şah`la onun haznedari bir keşiş vardi”.

Ushbu an’anaviy muqaddimalar turkiy xalqlar orasida tarqalgan qo‘lyozma dostonlaridagi uslubning bir xilligini ko‘rsatadi.

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: ***google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.***
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

Адабиётлар рўёхати:

1. Қаландаров А.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида компаративлик категорияси ифодаланишининг синтактик-семантик хусусиятлари // PhD дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 7.
2. Чичеров В.И. Русское народное творчество. изд.МГУ, 1959. –С.19.
3. Қаландаров А.Р. Comparativeness as a Separate Category (in the Examples of English and Uzbek Languages) // Минтақада замонвий фан, таълим ва тарбиянинг долзарб муаммолари. Урганч, 2017. – Б. 83.
4. Стеблева И.В. Культурные контакты тюркских народов в древности и раннем средневековье. // «Советская тюркология». Баку. 1987. №3. –С.83
5. Пропп В.Я. Русский героический эпос. М.: Наука, 1958.